

MAHDUMI A'ZAM TA'LIMOTIDA MAROMIYLIK HAMDA BAG'RIKENGLIK
G'OYALARINING TASAVVUFIIY-FALSAFIY TAHLILI

Uraqov Nodirbek Boboqulovich

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Raqqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrası assistenti

E-mail: u-nodirbek@yandex.com Tel: +998 946123479

ORCID: 0009-0006-0763-8279

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21916980>

Annotatsiya. Maqolada Mahdumi A'zam ta'limotida maromiylik va bag'rikenglik g'oyalarining tasavvufiy-falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Mutafakkirning “Risolai Bitixiya”, “Odob us-solikin”, “Murshid us-solikin”, “Bayoni silsila” va boshqa risolalari asosida me'yor, qanoat, sabr, muruvvat va insonparvarlik tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, mazkur g'oyalarning “O'zbekiston–2030” strategiyasi hamda “Maromiylik” umummilliy harakati bilan uyg'un jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Mahdumi A'zam, maromiylik, bag'rikenglik, tasavvuf, Naqshbandiya, qanoat, sabr, komil inson, Yangi O'zbekiston.

Bugungi kunda O'zbekistonda ma'naviy taraqqiyot, ijtimoiy birdamlik va iqtisodiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. “O'zbekiston–2030” strategiyasida inson qadri, ma'naviy barkamollik, tejamkorlik va jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda milliy ma'naviy meros, xususan, tasavvuf namoyandalarining qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Movarounnahr tasavvuf maktabining yirik vakillaridan biri Mahdumi A'zam (1461–1542) hisoblanadi. Uning asarlarida insonning ichki va tashqi hayotidagi muvozanat, me'yor, qanoat, muruvvat va bag'rikenglik masalalari keng yoritilgan [2]. Tasavvuf an'anasida maromiylik “i'tidol”, “vasatiylik”, “qanoat” va “sabr” tushunchalari bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu tushunchalar insonning nafsiiy istaklari va ruhiy ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi [6]. Naqshbandiya tariqatining mashhur “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili ham aynan me'yoriy hayot falsafasini ifodalaydi. Ushbu tamoyil insonning dunyodan uzilmagan holda ma'naviy kamolot sari intilishini anglatadi [7]. Mahdumi A'zamning “Risolai Bitixiya” asarida dunyo ne'matlaridan oqilona foydalanish zarurligini quyidagi ramziy ifoda orqali tushuntiradi: “این جهان مزرعه آخرت است” Translitteratsiya: “In jahon mazra'ei oxirat ast”. Tarjima: “Bu dunyo oxirat hosilini yetishtiradigan ekinzordir” [3,409–425]. Mazkur fikr insonning moddiy boylikka mutlaq bog'lanib qolmasligi, ayni paytda uni inkor ham etmasligi lozimligini anglatadi. Mutafakkir nazarida maromiylik dunyo va oxirat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni saqlashdan iborat. Mutafakkir asarlarida qanoat komillikning muhim sharti sifatida talqin qilinadi. U qanoatni faqirlik emas, balki insonning ichki boyligi sifatida ko'rsatadi [8]. “Risolai Bitixiya”da shunday deyiladi: قناعت گنجی است که هرگز فنا نیپذیرد Translitteratsiya: “Qanoat ganji ast ki hargiz fano napazirad”. Tarjima: “Qanoat shunday xazinaki, u hech qachon yo'q bo'lmaydi” [3,409–424]. Bugungi kunda “Maromiylik” umummilliy harakati doirasida ilgari surilayotgan tejamkorlik, isrofgarchilikka qarshi kurashish va iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish g'oyalari Mahdumi A'zamning mazkur qarashlari bilan uyg'unlik kasb etadi. Mutafakkirning fikricha, insonning ortiqcha dabdababozlikka berilishi uning ma'naviy qashshoqligidan dalolat beradi. Shu bois qanoat va shukronalik nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy barqarorlik omili ham hisoblanadi. Mahdumi A'zam qarashlarida bag'rikenglik insoniy komillikning muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi. Tasavvufda bag'rikenglikning manbai muhabbat va ma'rifat hisoblanadi.

Mutafakkir insonlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat tamoyiliga ham katta ahamiyat beradi. “Bayoni silsila” risolasida quyidagi hikmat keltiriladi: مؤمن آینه مؤمن است Translitteratsiya: Mo'min oyinayi mo'min ast. Tarjima: Mo'min mo'minning oynasidir [4, 261–265]. Bu hikmat tasavvufiy axloqning muhim qoidalaridan biridir. Oyna insonning aybini yashirmaydi, biroq uni haqorat ham qilmaydi. Shuning uchun Mahdumi A'zam boshqalarning kamchiliklarini ko'rishda adolat, muloyimlik va muruvvat bilan yondashishni tavsiya qiladi. Bunday yondashuv bugungi zamonaviy tolerantlik konsepsiyasining ma'naviy ildizlarini tashkil etadi. Risolasida insonlarni hurmat qilish va ularga mehr bilan munosabatda bo'lish tariqat odobining asosiy shartlaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Mazkur hikmat insonning boshqalarga nisbatan adolatli va bag'rikeng munosabatda bo'lishini talab etadi. Tasavvufda insonning kamchiligini ko'rish emas, balki uni tuzatishga ko'maklashish muhim sanaladi. “Risolai

Bitixiya” asarida maromiylik g’oyasi insonning nafsiiy ehtiyojlari va ma’naviy ehtiyojlari o’rtasidagi muvozanat sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir inson hayotidagi barcha munosabatlar, jumladan, oilaviy, ijtimoiy va ma’naviy aloqalar me’yor asosida qurilgandagina komillik sari rivojlanishini ta’kidlaydi. Risolada nikohning mohiyati haqida so’z yuritilar ekan, quyidagi fikr keltiriladi: «كشت دوست كردن كشت باطنی و ظاهری» Transliteratsiya: “Kisht do’st kardan kishti zohiriy va kishti botiniy”. Tarjimasi: “Do’stlik ekin zohiriy ekin ham, botiniy ekin hamdir”. Mazkur fikr oila va nikohning nafaqat biologik yoki ijtimoiy institut, balki inson ma’naviy kamolotining muhim omili ekanligini ko’rsatadi. Mutafakkir nazarida insonning ichki dunyosidagi muhabbat va mehr-oqibat jamiyatdagi bag’rikenglikning ham asosini tashkil etadi [3,410-411]. Mahdumi A’zam maromiylikni qanoat va me’yor bilan bog’laydi. Mutafakkir dunyoviy ne’matlarni inkor etmaydi, biroq ulardan foydalanish me’yor bilan cheklanishi lozimligini ta’kidlaydi. Asarda shunday deyiladi: «خزینہ را نگاہ داشتن و خوردن و دادن از روی ثواب در خود گرفتن» Transliteratsiya: “Xazīna-rā nigāh doshtan va xurdan va dodan az rūyi savāb dar xud giriftan”. Tarjimasi: “Boylikka nisbatan savob va mas’uliyat mezonida munosabatda bo’lish kerak” [3,410-412]. Bu qarash zamonaviy iqtisodiyotdagi mas’uliyatli iste’mol konsepsiyasiga yaqin turadi. Risolada maromiylikning oilaviy hayotdagi ko’rinishlari ham keng yoritiladi. Mahdumi A’zam nikohni nafaqat ijtimoiy zarurat, balki ma’naviy kamolot vositasi sifatida baholaydi. Mutafakkirning fikricha, nikohdagi maromiylik faqat moddiy ta’minot bilan emas, balki ruhiy va axloqiy muvozanat bilan ham belgilanadi. Shu bois oilada mehr, mas’uliyat va qanoatning mavjudligi jamiyatdagi barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Mazkur fikrda iqtisodiy faoliyatning uch bosqichi – jamg’arish, iste’mol va taqsimot me’yor asosida tashkil etilishi zarurligi ilgari suriladi. Bu bugungi “Maromiylik” umummilliy harakatining tejamkorlik va iqtisodiy madaniyatga oid maqsadlari bilan to’la uyg’unlashadi. Mahdumi A’zam qanoatni iqtisodiy maromiylikning markaziy mezon sifatida talqin qiladi. U boylikning o’zi emas, balki unga munosabat insonning ma’naviy darajasini belgilashini qayd etadi. Ushbu qarash bugungi kunda targ’ib etilayotgan iqtisodiy madaniyat va tejamkorlik konsepsiyasining tarixiy-falsafiy ildizlarini ko’rsatadi. Mahdumi A’zam boylikni inkor qilmaydi, biroq uni maqsad emas, vosita sifatida talqin qiladi. Asarda maromiylikning yana bir muhim ko’rinishi sifatida isrofdan tiyilish masalasi ko’tariladi. Muallif ortiqcha dabdaba va me’yorning buzilishi insonni ma’naviy tanazzulga olib borishini qayd etadi. Mahdumi A’zam Kosoniyning “Risolai Bitixiya” asari maromiylik g’oyasini tasavvufiy-antropologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan talqin qiluvchi muhim manbalardan biridir. Asarda maromiylik tushunchasi insonning ehtiyojlari, iqtisodiy faoliyati, oilaviy hayoti va ma’naviy kamoloti o’rtasidagi muvozanat sifatida izohlanadi [3,410]. Mahdumi A’zam ta’limotida maromiylik va bag’rikenglik bir-biridan ajralgan tushunchalar emas, balki komil insonni shakllantiruvchi yagona ma’naviy tizimning ikki muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir nazarida inson avvalo o’z nafsini me’yorlashtirishi, ehtiyoj va istaklarini nazorat qilishi, qalbini muhabbat va ma’rifat bilan poklashi lozim. Ana shundan keyingina unda boshqalarga nisbatan muruvvat, shafqat va bag’rikenglik fazilatlarini shakllanadi. Mahdumi A’zam tariqatning mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: طریقت عبارت از محبت است Transliteratsiya: Tariqat iborat az muhabbat ast. Tarjimasi: Tariqatning mohiyati muhabbatdir. [2, 418]. Ushbu fikr tasavvufiy antropologiyani asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi. Maromiylikning ichki mexanizmi ham aynan muhabbat orqali shakllanadi. Chunki muhabbat mavjud bo’lgan qalbda hasad, kibr va adovat kamayadi, ularning o’rnini mehr, muruvvat va hamjihatlik egallaydi. Muhabbatning ma’naviy tabiati haqida mutafakkir shunday yozadi: این محبت آتشی است که در دل بندگان پیدا می‌شود Transliteratsiya: In muhabbat otash ast ki dar dili bandagān paydā meshavad. Tarjimasi: Bu muhabbat bandalar qalbida paydo bo’ladigan ilohiy olovdir. [2,420-421]. Mutafakkir insonning ichki poklanishi va jamiyatdagi murosali munosabatlar o’rtasidagi bog’liqlikni ham alohida ko’rsatadi. Naqshbandiya ta’limotidagi bag’rikenglik konsepsiyasining markaziy g’oyasini ifodalaydi. Muhabbat insonlar o’rtasidagi ziddiyatlarni yumshatadi, adovatni kamaytiradi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Mahdumi A’zam muhabbatni insonni yuksaltiruvchi, nafsni jilovlovchi va jamiyatda bag’rikenglikni qaror toptiruvchi kuch sifatida baholaydi. Shu sababli mutafakkir nazdida bag’rikenglik oddiy murosali emas, balki ma’rifat va muhabbatning amaliy natijasidir. “Odob us-solikin” risolasida muridning axloqiy fazilatlarini haqida fikr yuritilar ekan, muruvvat va kechirimlilik eng muhim sifatlar qatorida ko’rsatiladi. Mutafakkir quyidagicha yozadi: «طریق اهل الله بر» «شفقت و رحمت است» Transliteratsiya: “Tariqi ahlulloh bar shafqat va rahmat ast”. Tarjimasi: “Alloh do’stlarining yo’li shafqat va rahmat yo’lidir” [5,528-533]. Ushbu fikr bag’rikenglikning tasavvufiy mohiyatini yaqqol namoyon etadi. Tasavvuf ahlining asosiy vazifasi jamiyatda mehr-oqibat va insonparvarlik muhitini qaror toptirishdan iboratdir. Mahdumi A’zam ta’limotida maromiylik va bag’rikenglik bir-birini to’ldiruvchi tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Nafsini boshqara olmagan inson

boshqalarga nisbatan ham bag‘rikeng bo‘la olmaydi [14]. Shuning uchun mutafakkir avvalo ichki poklanish, keyinchalik esa ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish masalasini ilgari suradi. Bu jihatdan uning qarashlari zamonaviy axloq falsafasidagi o‘zini boshqarish va ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyalariga yaqin turadi. Bag‘rikenglikning amaliy ko‘rinishi sifatida mutafakkir shafqat va rahmatni ko‘rsatadi. Mahdumi A‘zam nazarida haqiqiy komillik insonning boshqalarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Agar inson ko‘p ibodat qilsa-yu, ammo odamlarga nisbatan qo‘pol va murosasiz bo‘lsa, uning ma’naviy kamoloti to‘liq emas. Shu sababli tariqat ahlining asosiy vazifalaridan biri jamiyatda mehr-oqibat muhitini shakllantirishdan iborat. Mazkur jumla Mahdumi A‘zamning bag‘rikenglik haqidagi qarashlarini umumlashtiradi. Muhabbat insonni nafs hukmronligidan ozod qiladi, maromiylik esa ushbu ichki erkinlikni amaliy hayotga tatbiq etadi. Natijada bag‘rikenglik insonning tashqi xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy fazilatga aylanadi. Shu jihatdan Mahdumi A‘zam ta’limotida maromiylik va bag‘rikenglik o‘zaro sabab-oqibat munosabatida namoyon bo‘ladi. Maromiylik insonning ichki dunyosini tartibga solsa, bag‘rikenglik ushbu tartibning ijtimoiy munosabatlardagi ifodasi hisoblanadi. Bunday yondashuv bugungi Yangi O‘zbekistonda targ‘ib etilayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalari bilan hamohangdir. Mahdumi A‘zam maromiylikni zohir va botin o‘rtasidagi uyg‘unlik orqali ham tushuntiradi. U quyidagi iborani keltiradi: «عبادت ظاهري و عبادت باطني» Transliteratsiya: “Ibodati-zohiri va ibodati-botini”. Tarjimasi: “Zohiriy ibodat va botiniy ibodat” [3. 414-415]. Bu yerda mutafakkir inson faoliyatining tashqi ko‘rinishi bilan uning ichki niyatlari o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Maromiylikning eng muhim belgisi ham aynan shu ichki va tashqi mutanosiblikdir. Asarda xizmat va mas’uliyat masalasiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Mahdumi A‘zamning fikricha, inson o‘z manfaatini emas, balki jamiyat manfaatini ham ko‘zlashi kerak [3.424-425]. Shu nuqtai nazardan maromiylik individual emas, balki ijtimoiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Risolaning muhabbatga bag‘ishlangan qismlarida maromiylikning ma’naviy asosi ochib beriladi. Muhabbat insonni haddan oshishdan, manmanlikdan va nafs hukmronligidan saqlaydi. Shu sababli tasavvufda muhabbat maromiylikning ichki mexanizmi sifatida qaraladi. Mahdumi A‘zam yana shunday deydi: «این محبت آتشی است که در دل بندگان پیدا می شود» Transliteratsiya: “In muhabbat otashast ki dar dili bandagon paydo meshavad”. Tarjimasi: “Bu muhabbat bandalar qalbida paydo bo‘ladigan ilohiy olovdir” [3.420-421]. Mutafakkir nazarida ushbu muhabbat insonni qanoatga, muruvvatga va bag‘rikenglikka olib boradi. Shu sababli maromiylik faqat iqtisodiy emas, balki ma’naviy kategoriya ham hisoblanadi. Asarda me’yorning buzilishi insonning ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘lishi qayd etiladi. Nafsning haddan tashqari kuchayishi isrof, dabdababozlik va manmanlikka olib keladi [3.412-413]. Shu bois Mahdumi A‘zam insonni o‘z ehtiyojlarini nazorat qilishga, har bir ishda mo‘tadillikni saqlashga da’vat etadi.

Demak, “Risolai Bitixiya”da maromiylik va bag‘rikenglik bir-biri bilan uzviy bog‘langan tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Maromiylik insonning nafsiy mayllarini me’yorlashtirsa, bag‘rikenglik uning ijtimoiy munosabatlarini uyg‘unlashtiradi. “Risolai Bitixiya”da maromiylik qanoat va iqtisodiy mas’uliyat, boylikdan oqilona foydalanish, nikoh va oiladagi muvozanat, zohir va botin uyg‘unligi, xizmat va ijtimoiy mas’uliyat, muhabbat va muruvvat, nafsni me’yorlashtirish kabi tarkibiy qismlar orqali talqin qilinadi. Mazkur tamoyillar bugungi Yangi O‘zbekistonda ilgari surilayotgan iqtisodiy madaniyat, tejamkorlik, ijtimoiy birdamlik va inson qadrini ulug‘lash g‘oyalari bilan to‘liq hamohangdir. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlar tarbiyasi, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan Mahdumi A‘zamning: qanoat, me’yor, sabr, muruvvat, bag‘rikenglik, komil inson haqidagi qarashlari ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlarda namoyishkorona hayot tarzining ommalashishi sharoitida mutafakkirning maromiylik haqidagi g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mahdumi A‘zam ta’limotida maromiylik va bag‘rikenglik g‘oyalari komil inson konsepsiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkirning qanoat, me’yor, sabr va muruvvat haqidagi qarashlari bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda “Maromiylik” umummilliy harakati maqsadlari bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli Mahdumi A‘zam merosidan ta’lim-tarbiya tizimida, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda, isrofgarchilikka qarshi kurashishda hamda bag‘rikeng fuqarolik jamiyatini shakllantirishda samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. *O‘zbekiston–2030 strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mahdumi A‘zam Dahbediy. *Majmua ar-rasoil*. – Toshkent: Qamar-media, 2020.

3. Mahdumi A'zam. *Risolai Bitixiya* // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 409–425.
4. Mahdumi A'zam. *Bayoni silsila* // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 261–265.
5. Mahdumi A'zam. *Odob us-solikin* // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 528–533.
6. Komilov N. *Tasavvuf va komil inson*. – Toshkent: Yozuvchi, 1997.
7. Valixonov A. *O'zbek tasavvuf tafakkuri tarixi*. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
8. Hasanov B. *Naqshbandiya ta'limotining ma'naviy-falsafiy asoslari*. – Toshkent, 2018.